
БАЙРАМ МУНОСАБАТИ БИЛАН ФАХРИЙ ЎҚИТУВЧИЛАР ХОЛИДАН ХАБАР ОЛИНДИ

Toshloq tumanida Yangi yil bayrami munosabati bilan bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan ustoz murabbiylar xolidan xabar olindi. Ularga yangi yil sovg'alari ulashildi.

Farg'ona viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Sh.Dolimov hamda tuman bo'limi mudiri A.Solievlar bayram munosabati bilan tumandagi bir guruh faxriy ustozlarning xonadonlariga tashrif buyurib, ular bilan dildan suhbat qurdilar. Ta'lim tizimida uzoq yillar samarali mehnat qilgan ustozlarning Yangi yil bayrami bilan samimiy muborakbod etdilar.

"Do'stlik" MFYda istiqomat qilayotgan faxriy o'qituvchi Nina Barisovna Zakirova 40 yil tumandagi 2-umumta'lim maktabida o'quvchilarga ta'lim tarbiya berdi. Ta'lim tizimini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shib, samarali faoliyat olib bordi.

"Zarkent" MFYda yashovchi Ro'zi ota Karimov ham 40 yildan ziyod umrini ta'lim tarbiya berishga sarfladi. Har doim yoshlarga bilim berishdan charchamadi. Uzoq yillik samarali mehnati davomida ko'plab yoshlarni hayotda o'z o'rnini topishda ko'maklashdi. "Yangi yo'l" MFYda 30 yil o'qituvchilik kasbini egallab kelgan Flyura Bagautdinova. U rus tili fanidan yoshlarga bilim berdi. Xozirda keksalik gashtini surmoqda.

Shu kuni faxriylarni xolidan xabar olinib, bayram kayfiyati ulashildi. Ustozlar bugungi kunlar uchun shukronalik keltirib duoga qo'l ochdi.

2023-12-30 14:21:33